

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYAMIZDA IJTIMOY NAFQA, PENSIYA, ISH HAQI VA IJTIMOY YORDAM YANADA MUSTAHKAMLANDI

Ramazonov Amir Akbarovich

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xususiy huquq" fakulteti talabasi

Davlatchilik tariximiz yuz yillar davomida shakllanib sayqal topdi. Asrlar davomida to'plangan tajribalar bugungi kunda davlatchilik tizimida tartiblashtirilib kiritildi. Mustaqilligimizdan so'ng, 1992-yilda qonunchiligimizning asosiy tayanchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya jamiyki huquq tizimining ierarxik bosh nuqtasi hisoblanadi. Har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, burch va majburiyatlari ko'rsatilgan hujjat bu, Konstitutsiyadir.

Fuqarolarimizning yashash tarzi, oilaviy ahvoli, mehnatiga yarasha haq to'lash, qariganda nafaqa olish, muomala layoqati cheklangan fuqarolarimizga ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlash konstitutsiyamizda o'z aksini topdi.

"Iliqlik", "Turg'unlik" va "Qayta qurish" davrlarida qog'ozda bor, amalda yo'q bo'lgan huquq va erkinlar mustaqillikdan so'ng o'z o'rnini topdi va amalga tadbiiq etildi.

Bir necha marta qo'shimchalar kiritilgan Konstitutsiyamiz so'ngi bor 30-aprel 2023-yilda tubdan o'zgartirildi, qo'shimchalar va yangi normalar qo'shildi. Davlatimizdagi huquqiy turbulenslikni yo'qotish maqsadida jamiyatdagi bo'shliqlar to'ldirildi. Amalda joriy etilgan qonunlar yangi konstitutsiya orqali qayta tuzatishlar, qo'shimchalar kiritildi.

Xususan, fuqarolarning moliyaviy ta'minoti sohasida bir nechta xorijiy tajriba va milliy an'analardan andoza olib yangi konstitutsiyaviy normalar vujudga keldi.

Joriy amalda tadbiiq etilgan Konstitutsiyamizdagi normalarga quyidagicha tahlil olib boramiz:

42-modda.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalalanish huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

46-modda.

Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega.

Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas.

57-modda.

Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.

Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Bugungi kunda fuqarolarimiz hayotini yaxshilash, barqarorlikni ta'minlash maqsadida bir qator qonunlar Oliy Majlisimiz tomonidan ishlab chiqarilmoqda va qonunlarda o'z tasdig'ini topmoqda. Yuqoridagi konstitutsiyaviy norma ham jamiyatdagi kamchiliklarni, oylik ish haqidagi muammolarni hal etishva aholi turmush darajasini oshirish maqsadida vujudga keldi.

Mehnat faoliyatidagi har bir jins vakili, jamiyatdagi muomalasi cheklangan fuqarolar, tug'ma hamda ish jarayoni davomida orttirgan kasali mavjud insonlar, ijtimoiy nafaqaga muhtoj kambag'allar hamda pensionerlar haqida davlatimiz qayg'uradi va ta'minot ishlarini olib boradi.

Har bir inson munosib mehnat sharoitida, so'g'lom muhitda ishlashga loyiq hamda bu mehnati davomida haq to'lanishi lozim. Ish haqqi ish beruvchi va xodim o'rtasidagi shartnomada ko'rsatilishi va xodim tomonidan ma'qullanishi kerak. Agarda maosh xodimni qoniqtirmasa, ishchi bu haqida ish beruvchiga bildirishi va maoshni oshirish haqida iltimosnoma jo'natishi mumkin. Qonunchilik ham bu jarayonni oqlaydi.

Mehnat kodeksi, 246-modda

Mehnatga haq to'lash shartlari va miqdori ish beruvchi hamda xodim o'rtasidagi kelishuvga ko'ra, bajariladigan ishning murakkabligi va shartlari, xodimning kasbiy-malakaviy va ishchanlik sifatlari, uning mehnati hamda tashkilotning xo'jalik faoliyati natijalari hisobga olingan holda ushbu ish beruvchida amalda bo'lgan mehnatga haq to'lash tizimlariga muvofiq belgilanadi."

Yuqoridagi norma ham maosh haqida yuritilgan mulohazaning isboti bo'la oladi.

Mehnatga haq to'lash adolatlilik, tenglik, faoliyat turi, ishning murakkabligi, ishning darajasi, muhitning holati va boshqa prinsiplarga asosan belgilanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda eng kam oylik ish haqqi 1 million 50 ming so'mni tashkil etadi.

Qo'shni mamlakatlarda vaziyat qanday?

Qozog'istonda 2023-yildan boshlab mamlakatda eng kam ish haqi miqdori oshirildi – 70 ming tengge (1,757 mln so'm).

Qirg'izistonda esa eng kam ish haqi miqdori 2337 somni tashkil etadi (305 ming so'm).

Turkmanistonda esa 2023-yildan boshlab eng kam oylik ish haqi 1160 manat deb belgilangan. Bu ko'rsatkich 3,778 mln so'mga teng.

Tojikistonda eng kam oylik ish haqi 536 somoniyga teng bo'lib, u hozirgi kunda 560 ming so'mga teng.

Mamlakatlardagi inflyatsiya, YAIM, aholi soni va boshqa iqtisodiy holatlarni inobatga olib O'zbekistondagi eng kam oylik ish haqqi qo'shni mamlakatlarga nisbatan past deyishimiz mumkin. Miqdorlar o'sishi, koeffitsientlar yaxshilanishi uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rish maqsadida Prezidentimiz tomonidan qaror va farmonlar chiqarilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2023-yildagi PF-196-sonli farmoniga binoan:

2023-yil 1-dekabrda boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida:

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori – oyiga 1 050 000 so'm;

pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori – oyiga 372 000 so'm;

yoshga doir eng kam pensiya miqdori – oyiga 725 000 so'm;

nogironlik pensiyalari, jumladan ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori – oyiga 800 000 so'm;

mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi va bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa miqdori – oyiga 800 000 so'm;

zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi fuqarolarga beriladigan nafaqa miqdori – oyiga 621 000 so'm etib belgilandi.

Aholi turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ushbu miqdorlar yildan- yilga oshib bormoqda.

Davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam, kam ta'minlanganlar uchun beriladigan oylik nafaqa pullari, nafaqaxo'rlarga to'lanadigan pensiyalar Prezidentimiz va uning yordamchilari tomonidan doimiy nazorat qilinadi

Fuqarolar hayotini o'nglash maqsadida kiritilgan yuqoridagi normalar barcha uchun foydali bo'lmoqda. Ijtimoiy yordamga muhtoj, ehtiyojmand, nogironligi bor kishilarning nafaqat moliyaviy ahvoli balki, ularning jamiyat hayotidagi o'rni, ijtimoiy, siyosiy holatiga qo'shimcha vakolat va ko'mak berilmoqda.

Nuqtayi nazarimiz aholining huquqiy ongi, moliyaviy erkinligini rivojlantirishga qaratilgan barqaror, erkin, tolerant, demokratik va farovon davlat qurishdadir. Bu yo'lda fuqarolarimiz davlatimizdan minnatdor bo'lishi, maishiy hayotdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun xorijiy va tarixiy-an'anaviy usullardan foydalanib, mos va xos mukammal dastur yaratishimiz va uni har bir inson ongiga singdirishimiz kerak.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: "Xalq qachon yengilmas bo'ladi? Qachonki, yuksak ma'naviyatga va namunali xulq-atvorga ega bo'lsa. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuchdir".

Xalq farovonlikda hayot kechirsa, davlat rivojlanadi, yuksaladi, barkamollikka erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Mehnat Kodeksi